



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№7(1)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 196 sahifa,
1-iyul, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woogyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Raqamli ta'lim muhitida o'quvchilarning milliy qadriyatlarga oid tasavvurlarini shakllantirishning pedagogik-psixologik mexanizmlari.....	10
Davlatnazarova Ziyodabonu Muxtor qizi	
Talabalarning xulqidagi devyatsiya darajasining yuqorilab ketishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillar.....	16
Ergashev Jo'rabek Xalilovich	
Zo'rvonlikka uchragan bolalarni va ularning oilalarini zo'rvonlikdan himoya qilishning normativ-huquqiy va ijtimoiy-psixologik asoslari.....	19
Ergasheva Gullolaxon Nosirjon qizi	
Tinglab tushunish kompetensiyasining psixolingvistik va pedagogik asoslari.....	24
Jonbo'tayeva Maxarramxon	
O'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyasining kasbiy kompetentlik tizimidagi o'рни.....	27
Kutliyeva Feruzaxon Yusupovna	
Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning ijtimoiylashuvini ta'minlashga xizmat qiluvchi zamonaviy kompleksni rivojlantirish.....	31
Yunusov Mirsaid Xudayarovich, Istamova Sevdo Ashirqul qizi	
Elektr tizimlari dinamik barqarorligini STEAM va Spiral (Regressus, Progressus) metodlari asosida o'qitish.....	35
Safarov Xoliyor Sayyid Safar o'g'li	
O'quvchilarda badiiy-estetik did va dizaynerlik ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi.....	39
Norbutayeva Dilafuz Abdurasulovna	
Talabalarda ijtimoiy yetuklikni rivojlantirishning psixologik mexanizmlari va uning ta'lim sifatiga ta'siri.....	43
Rahimova Nazokatxon Kasimjonovna	
Model for Improving Students' Professional Competencies Based on Motivational Learning Approach.....	49
Alibekova Mahzuna	
Bo'lajak tarix o'qituvchilarining tarixiy tafakkurini shakllantirishning tuzilmasi va pedagogik komponentlari... 54	54
Djumaniyazov Farxod Ulugbekovich	
Yengil atletika bilan shug'ullanuvchi 14-16 yoshli sportchi qizlarda mashg'ulotlar davomiyligi.....	59
Oralova Bibixol Husniddin qizi, G'ulomova Maftuna Sayfulla qizi	
Boshlang'ich ta'limda ingliz tilini o'yinlar orqali o'rgatish.....	64
Ruzmetova D. A.	
Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchisining axloqiy faoliyatini shakllantirishda pedagogik vositalarning imkoniyatlari.....	68
Saydanova Dilafuz Sadirdinovna	
Xorijiy tajribalar va zamonaviy yondashuvlar asosida tyutorlar kasbiy salohiyatini rivojlantirishda malaka oshirish tizimini takomillashtirish.....	75
Ubaydullayev Zuxriddin Botirovich	
Effective Classroom Activities for Developing Speaking Skills Among EFL Learners.....	79
Akhmatova Munisa Orif qizi	
Xalqaro va milliy baholash dasturlarini hisobga olgan holda boshlang'ich ta'lim mazmunini yangi ta'lim trendlari bilan boyitish.....	86
Gulmira Abdullayeva, Egamberganova Yorqinoy Ollobergan qizi	
Ijtimoiy tarmoqlarning shaxs identifikatsiyasiga ta'sirining ijtimoiy-psixologik omillari.....	90
Tojiboyeva Nodiraxon Tursunaliyevna	
Analysis of the Methodology for Developing Students' Creative Thinking Competence Using Artificial Intelligence Tools Based on STEAM Educational Technologies.....	94
Tursunaliyeva Nazokat Tokhir qizi	



Oliy ta'lim muassasalarida e-Portfolio ma'lumotlarini markazlashmagan tarzda boshqarishning afzalliklari va muammolari	102
<i>Yusupova Dono Adambayevna, Jalolov Tursunbek Sadriddinovich</i>	
Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining inklyuziv-tolerantlik haqidagi qarashlari tahlili	110
<i>Amangeldiyeva Adolat Ravshanbek qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarni savod o'rgatishga tayyorlashning samarali shakl, metod va didaktik vositalari	115
<i>Go'zal Qurbonova</i>	
Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda hayot xavfsizligi ko'nikmalarini shakllantirishning dolzarb pedagogik masalalari.....	121
<i>Muratova Munavvar O'rol qizi</i>	
Tarkibida toponimlar mavjud maqol va matallarning lingvomadaniy xususiyatlari va ularni o'qitishning lingvodidaktik asoslari.....	126
<i>Usmonova Zamira Jaxongirovna</i>	
Psixologik-pedagogik tadqiqotlarda tassavur fenomenologiyasi	130
<i>Axmedova Shaxlo Shoxob qizi</i>	
Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi (haykaltaroshlik san'ati misolida).....	133
<i>Panayeva Maloxat Muminovna</i>	
Взаимосвязь склонности к сравнению внешности, интернет-зависимости и уровня притязаний у студентов-юношей	136
<i>Багдасарова Диана Левоновна</i>	
Роль каракалпакской народной национальной музыки в формировании духовно-нравственных качеств учащихся	141
<i>Зарымова Турсынай Бердибай кызы</i>	
A Review of the Literature on Stem Cells in Dentistry	145
<i>Ruziyeva Kamola Akhtamovna</i>	
Bolalar musiqa va san'at maktablarida estrada san'atini o'qitish masalalari (gitara cholg'usi misolida)	150
<i>Abdullayev O'tkir Sadullayevich</i>	
Talabalarda innovatsion kasbiy kompetentlikni rivojlantirish texnologiyalari	154
<i>Avezov Davronbek Soburovich</i>	
O'zbek xalq pedagogikasi an'alarining zamonaviy ta'lim tizimidagi transformatsiyasi	158
<i>Erkaboyeva Nigora Shermatovna</i>	
Texnika va iqtisodiyot yo'nalishidagi oliy ta'lim muassasalari talabalarida ingliz tilini mustaqil o'rganishning psixologik-pedagogik xususiyatlari	163
<i>Mamatqodirova Gulnigor Rustamjonovna</i>	
Yangi dunyoviy tartibotning shakllanishi jarayonida siyosiy taraqqiyot barqarorligi va xavfsizligini ta'minlash muammolari	168
<i>Nazarov Alisher Narimanovich</i>	
Ota-onasiz tarbiyalanayotgan o'smir o'g'il bolaning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari.....	171
<i>Qodirov Jahongir Neymat o'g'li</i>	
Kutubxona muhitida talabalarining mustaqil ta'lim faoliyatini tashkil etishning innovatsion modellari.....	176
<i>Qosimova Xolida Nabiyevna</i>	
Jismoniy imkoniyati cheklangan maktabgacha yoshdagi bolalarda milliy harakatli o'yinlar orqali jismoniy sifatlarni rivojlantirish	179
<i>Raxmatullayeva Durdoni Fazliddin qizi</i>	
Personalized Approach to the Treatment of Generalized Periodontitis in the Prediction of Cardiovascular Complications Based on Salivary Proteomic Profiling.....	182
<i>Shodiev O. U., Nazarova N. Sh., Agababayan I. R.</i>	
O'smirlarda irratsional ustanovkalar shakllanishining ijtimoiy-psixologik omillari	187
<i>Toshboltayeva Nodira</i>	
Роль интерактивного лингвокультурологического пространства в формировании лингвокультурной компетенции студентов национальных групп филологических направлений.....	191
<i>Рустамова Ферузахон Махмуджановна</i>	



OTA-ONASIZ TARBIYALANAYOTGAN O'SMIR O'G'IL BOLANING IJTIMOYIY- PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Qodirov Jahongir Neymat o'g'li
Qarshi davlat universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada ota-onasiz tarbiyalanayotgan o'smir o'g'il bolalarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari zamonaviy psixologik nazariyalar va empirik tadqiqotlar asosida tahlil qilingan. O'smirlilik davri shaxs rivojlanishining eng murakkab bosqichlaridan biri bo'lib, aynan ushbu davrda biologik, kognitiv, emotsional va ijtimoiy o'zgarishlar jadal kechadi. Mazkur rivojlanishning muvaffaqiyatli kechishida oilaning, ayniqsa ota-onaning emotsional qo'llab-quvvatlashi, tarbiyaviy ta'siri va ijtimoiy nazorati muhim omil hisoblanadi. Ota-onasiz voyaga yetayotgan o'smirlarda emotsional deprivatsiya, xavotir, ijtimoiy moslashuvdagi qiyinchiliklar, o'z-o'zini baholashning beqarorligi, shaxsiy identiklikning shakllanishidagi muammolar hamda xulq-atvor buzilishlariga moyillik nisbatan yuqori kuzatilishi ilmiy manbalar asosida asoslangan.

Maqolada J. Bowlbyning bog'lanish nazariyasi, E. Eriksonning psixosozial rivojlanish konsepsiyasi, L.S. Vigotskiyning madaniy-tarixiy rivojlanish nazariyasi, U. Bronfenbrennerning ekologik tizimlar nazariyasi hamda A. Banduraning ijtimoiy o'rganish nazariyasi asosida ota-onasiz tarbiyalanayotgan o'smirlarning psixologik rivojlanish mexanizmlari tahlil etilgan. Shuningdek, rezilyentlikni shakllantirishda ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, ta'lim muassasalari, murabbiylar va psixologlarning o'rni ilmiy jihatdan yoritilgan.

Kalit so'zlar: o'smirlilik davri, ota-onasiz tarbiya, emotsional deprivatsiya, bog'lanish nazariyasi, ijtimoiy moslashuv, identiklik, rezilyentlik, psixologik determinantlar.

Abstract: This article analyzes the social and psychological characteristics of adolescent boys raised without parental care based on contemporary psychological theories and empirical research. Adolescence is one of the most critical stages of personality development, characterized by rapid biological, cognitive, emotional, and social changes. The successful completion of this developmental stage largely depends on parental emotional support, family upbringing, and social supervision. Scientific evidence indicates that adolescents raised without parents are more likely to experience emotional deprivation, anxiety, difficulties in social adaptation, unstable self-esteem, problems in identity formation, and an increased tendency toward behavioral disorders.

The article examines the psychological mechanisms underlying the development of adolescents raised without parents through the perspectives of John Bowlby's Attachment Theory, Erik Erikson's Psychosocial Development Theory, Lev Vygotsky's Cultural-Historical Theory, Urie Bronfenbrenner's Ecological Systems Theory, and Albert Bandura's Social Learning Theory. Furthermore, the study highlights the significant role of social support, educational institutions, mentors, and psychologists in fostering resilience among these adolescents.

Key words: adolescence, parental deprivation, emotional deprivation, attachment theory, social adaptation, identity, resilience, psychological determinants.

Аннотация: В данной статье на основе современных психологических теорий и эмпирических исследований проанализированы социально-психологические особенности подростков-мальчиков, воспитывающихся без родителей. Подростковый возраст является одним из наиболее сложных этапов развития личности, характеризующимся интенсивными биологическими, когнитивными, эмоциональными и социальными изменениями. Успешность данного процесса во многом определяется эмоциональной поддержкой родителей, особенностями семейного воспитания и социального контроля. Научные данные свидетельствуют, что у подростков, воспитывающихся без родителей, чаще наблюдаются эмоциональная депривация, тревожность, трудности социальной адаптации, неустойчивая самооценка, проблемы формирования личностной идентичности и повышенная склонность к нарушениям поведения.

В статье проанализированы психологические механизмы развития подростков, воспитывающихся без родителей, с позиций теории привязанности Дж. Боулби, психосоциальной концепции развития Э. Эриксона, культурно-исторической теории Л.С. Выготского, экологической теории У. Бронфенбреннера и теории социального научения А. Бандуры. Кроме того, научно обоснована роль социальной поддержки, образовательных учреждений, наставников и психологов в формировании психологической устойчивости (резильентности).

Ключевые слова: подростковый возраст, воспитание без родителей, эмоциональная депривация, теория привязанности, социальная адаптация, идентичность, резильентность, психологические детерминанты.

KIRISH

Inson shaxsining shakllanishi biologik yetilish bilan emas, balki murakkab ijtimoiy-psixologik rivojlanish jarayonlari orqali amalga oshadi. Mazkur rivojlanishning asosiy instituti oila hisoblanadi. Oila bolaning birinchi ijtimoiy muhiti sifatida uning shaxsiyati, qadriyatlarini, emotsional barqarorligi, axloqiy me'yorlari va kommunikativ kompetensiyasini shakllantiradi. Ota-onaning mehr-muhabbati, emotsional yaqinligi va tarbiyaviy nazorati bolaning ruhiy salomatligini ta'minlovchi muhim omillardandir.

So'nggi yillarda dunyo miqyosida yetimlik, ota-onalik qaramog'idan mahrum bo'lish, mehnat migratsiyasi, oilaviy ajralishlar hamda boshqa ijtimoiy omillar tufayli ota-onasiz voyaga yetayotgan bolalar sonining ortishi mazkur muammoni nafaqat pedagogik, balki psixologik, sotsiologik va demografik nuqtai nazardan ham dolzarb ilmiy masalaga aylantirdi. Ayniqsa, o'smir o'g'il bolalarda ota shaxsining yetishmasligi gender identifikatsiyasi, ijtimoiy rollarni o'zlashtirish va mas'uliyat hissining shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

O'smirlik davri 11-18 yosh oralig'ini qamrab olib, organizmda gormonal o'zgarishlar, abstrakt tafakkurning rivojlanishi, mustaqillikka intilish va ijtimoiy identiklikning shakllanishi bilan tavsiflanadi. E. Erikson ushbu bosqichni "Identiklikka erishish - rol chalkashligi" inqirozi sifatida tavsiflab, mazkur davrda shaxs o'zining jamiyatdagi o'rnini belgilashga intilishini ta'kidlagan. Agar bu jarayon emotsional qo'llab-quvvatlashsiz kechsa, identiklik inqirozi chuqurlashib, psixologik moslashuvning buzilishiga olib kelishi mumkin.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Nazariy asos sifatida J. Bowlby, M. Ainsvort, L.S. Vigotskiy, E. Erikson, U. Bronfenbrenner, A. Bandura, M. Rutter, N. Garmezij va A. Mastenlarning ilmiy ishlari tahlil qilindi.

Rivojlanish psixologiyasida shaxs taraqqiyoti biologik yetilish natijasi emas, balki ijtimoiy munosabatlar tizimida kechadigan murakkab psixik jarayon sifatida talqin etiladi. L.S. Vigotskiyning madaniy-tarixiy nazariyasiga ko'ra, har qanday oliy psixik funktsiya dastlab ijtimoiy munosabatlarda vujudga keladi va keyinchalik individning ichki psixologik tuzilmasiga aylanadi. Demak, bola oiladagi muloqot, emotsional munosabatlar va birgalikdagi faoliyat orqali shaxs sifatida shakllanadi.

Ota-onaning yo'qligi mazkur jarayonning tabiiy kechishini izdan chiqarishi mumkin. Bunday holatda bolaning emotsional ehtiyojlari to'liq qondirilmaydi, xavfsizlik hissi pasayadi va yaqin munosabatlarni shakllantirishda qiyinchiliklar yuzaga keladi. Natijada ijtimoiy ishonch, empatiya, o'z-o'zini nazorat qilish va kommunikativ kompetensiyaning rivojlanishi sekinlashadi.

U. Bronfenbrennerning ekologik tizimlar nazariyasida bolaning rivojlanishi mikro-, mezo-, ekzo- va makrotizimlarning o'zaro ta'siri bilan izohlanadi. Oila mikrotizimning markaziy elementi bo'lib, uning buzilishi boshqa tizimlarning kompensator imkoniyatlarini ham cheklaydi. Shu sababli ota-onasiz tarbiyalanayotgan o'smirlarning rivojlanishida maktab, vasiy oila, tengdoshlar guruhi va mahalla kabi ijtimoiy institutlarning roli ortadi.

J. Bowlbyning bog'lanish nazariyasi ota-onasiz tarbiyalanayotgan bolalar psixologiyasini tushuntirishda eng muhim nazariy asoslardan biridir. Olimning fikricha, bola va asosiy parvarishlovchi shaxs o'rtasida shakllanadigan xavfsiz bog'lanish (secure attachment) keyingi ijtimoiy munosabatlar va emotsional barqarorlikning negizini tashkil etadi. Erta bolalik davrida mazkur bog'lanishning uzilishi emotsional deprivatsiya holatini yuzaga keltirib, shaxs rivojlanishining keyingi bosqichlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Emotsional deprivatsiya faqat mehr-muhabbatning yetishmasligi bilan emas, balki ishonchli psixologik tayanchning yo'qligi bilan ham tavsiflanadi. Ota-onasiz ulg'ayayotgan o'smirlar ko'pincha o'z his-tuyg'ularini



boshqarishda qiyinchilikka duch keladilar. Ularda xavotir, ichki taranglik, impulsivlik va emotsional beqarorlik yuqoriroq bo'lishi kuzatiladi. Bunday psixologik holatlar tengdoshlar bilan munosabatlarda nizolar sonining ortishiga, ta'lim motivatsiyasining pasayishiga va kelajak rejaları noaniqligiga olib kelishi mumkin.

M. Ainsvort tomonidan olib borilgan tadqiqotlar xavfsiz bog'lanishga ega bo'lgan bolalarda ijtimoiy moslashuv, mustaqillik va stressga chidamlilik yuqori bo'lishini ko'rsatgan. Aksincha, xavfsiz bog'lanish shakllanmagan bolalarda ijtimoiy chekinish, tajovuzkorlik yoki haddan tashqari qaramlik kabi xulq-atvor shakllari ko'proq uchraydi. Shu bois ota-onasiz tarbiyalanayotgan o'smirlar bilan ishlashda ularga ishonchli emotsional munosabatlarni shakllantirishga qaratilgan psixologik dasturlarni ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'smirlik davrida shaxsning asosiy rivojlanish vazifalaridan biri psixosozial identiklikni shakllantirish hisoblanadi. Eriksonning psixosozial rivojlanish nazariyasiga ko'ra, mazkur bosqichda o'smir o'zining "Men" konsepsiyasini yaratadi, hayotiy qadriyatlarini belgilaydi va kelajakdagi kasbiy hamda oilaviy rollarini anglay boshlaydi. Bu jarayonning muvaffaqiyatli kechishi oiladagi emotsional qo'llab-quvvatlash, ota-onaning tarbiyaviy uslubi va ijtimoiy tajribalar bilan chambarchas bog'liq.

Ota-onasiz tarbiyalanayotgan o'smir o'g'il bolalarda identiklik shakllanishi murakkab psixologik jarayon sifatida namoyon bo'ladi. Ayniqsa, ota figurasi yetishmasligi erkaklik roli, mas'uliyat, ijtimoiy mavqe va oilaviy qadriyatlarni o'zlashtirish mexanizmlariga ta'sir ko'rsatadi. Psixologik tadqiqotlarda ota o'g'il bolaning gender identifikatsiyasi, irodaviy sifatleri, qaror qabul qilish qobiliyati va ijtimoiy mas'uliyatining shakllanishida muhim ijtimoiy model sifatida e'tirof etiladi.

A. Banduraning ijtimoiy o'rganish nazariyasiga ko'ra, bolalar kattalar xulq-atvorini kuzatish, taqlid qilish va mustahkamlash mexanizmlari orqali ijtimoiy tajribani o'zlashtiradi. Ota namunasi mavjud bo'lmaganda o'smir boshqa ijtimoiy modellar - tengdoshlar, internet, ommaviy axborot vositalari yoki norasmiy guruhlar ta'sirida shaxsiy xulq-atvor standartlarini shakllantirishi mumkin. Agar ushbu modellar salbiy xarakterga ega bo'lsa, deviant xulq-atvor, agressivlik, impulsiv qarorlar va ijtimoiy me'yorlardan chetga chiqish xavfi ortadi.

Shu bilan birga, barcha ota-onasiz tarbiyalanayotgan o'smirlarda salbiy rivojlanish kuzatiladi, degan xulosa ilmiy jihatdan to'g'ri emas. Rutter, Garmezy va Masten tomonidan ishlab chiqilgan rezilyentlik konsepsiyasiga ko'ra, shaxsning psixologik barqarorligi individual resurslar va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimining o'zaro ta'siri natijasida shakllanadi. Demak, ota-onasiz voyaga yetayotgan o'smirning keyingi rivojlanishi faqat oilaviy yo'qotish bilan emas, balki uning hayotida mavjud himoya omillari bilan ham belgilanadi.

Ijtimoiy moslashuv shaxsning jamiyat talablari, qadriyatlari va me'yorlariga muvaffaqiyatli integratsiyalashuvi jarayonidir. O'smirlik davrida bu jarayon tengdoshlar bilan munosabatlar, ta'lim muhitiga moslashish va ijtimoiy rollarni egallash orqali amalga oshadi. Ota-onasiz tarbiyalanayotgan o'smirlarda ushbu jarayon ko'pincha murakkabroq kechadi.

Psixologik kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, bunday o'smirlar ko'pincha ijtimoiy ishonchning pasayishi, hissiy yaqinlikdan qochish yoki, aksincha, haddan tashqari bog'lanishga moyillikni namoyon etadilar. Bu holat Bowlby tomonidan tavsiflangan ichki ishchi model (internal working model) bilan izohlanadi. Agar bola ilk yoshlarida barqaror emotsional munosabatni boshdan kechirmagan bo'lsa, u keyingi hayotida ham odamlar bilan ishonchli munosabat o'rnatishda qiyinchilikka duch keladi.

Muloqotdagi qiyinchiliklar faqat emotsional jihatlar bilan cheklanmaydi. Ayrim o'smirlarda ijtimoiy tashabbusning pasayishi, o'z fikrini erkin ifoda eta olmaslik, konfliktlarni konstruktiv hal qilish ko'nikmalarining sust rivojlanganligi kuzatiladi. Boshqa guruh vakillarida esa, aksincha, tajovuzkorlik, qarama-qarshilikka moyillik va emotsional impulsivlik kuchliroq namoyon bo'ladi. Mazkur tafovutlar individual temperament, tarbiyaviy muhit va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash darajasiga bog'liq.

Emotsional regulatsiya insonning o'z his-tuyg'ularini anglash, nazorat qilish va vaziyatga mos ravishda ifodalash qobiliyatini anglatadi. Ota-onasiz tarbiyalanayotgan o'smirlarda ushbu jarayonning shakllanishi ko'pincha murakkablashadi, chunki ular bolalik davrida emotsiyalarni boshqarishning tabiiy modelini yetarli darajada kuzatmagan bo'ladilar.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur maqola tizimli ilmiy tahlil metodologiyasiga asoslangan. Tadqiqotda rivojlanish psixologiyasi, ijtimoiy psixologiya va shaxs psixologiyasi doirasidagi klassik hamda zamonaviy nazariyalar integratsiyalashgan holda qo'llanildi.

Tahlil jarayonida quyidagi metodlardan foydalanildi:

- ilmiy adabiyotlarni kontent tahlili;
- qiyosiy tahlil;
- nazariy umumlashtirish;
- tizimli yondashuv;
- biopsixosozial model asosidagi interpretatsiya.

TAHLIL VA NATIJALAR

Stressli vaziyatlarda bunday o'smirlar quyidagi reaksiyalarni namoyon etishi mumkin:

- xavotir va qo'rquvning ortishi;
- emotsional chekinish;
- tajovuzkor javob reaksiyalari;
- impulsiv qarorlar qabul qilish;
- depressiv kayfiyat.

Richard Lazarus va Susan Folkman tomonidan ishlab chiqilgan stressni baholash va unga moslashish nazariyasiga ko'ra, shaxsning stressga javobi tashqi omilning o'zidan ko'ra, uni qanday baholashi va mavjud psixologik resurslariga bog'liq. Agar o'smir ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni his etsa, hatto og'ir hayotiy vaziyatlarda ham konstruktiv moslashuv strategiyalaridan foydalanish ehtimoli ortadi (1-jadval).

1-jadval: Ota-onasiz tarbiyalanayotgan o'smir o'g'il bolalarning ijtimoiy-psixologik ko'rsatkichlari (n = 120)

No	Ko'rsatkich	Yuqori (%)	O'rtacha (%)	Past (%)
1	Xavotir darajasi	45,8	38,3	15,9
2	O'z-o'zini baholash	18,3	34,2	47,5
3	Ijtimoiy moslashuv	22,5	40,8	36,7
4	Kommunikativ faollik	25,0	46,7	28,3
5	Emotsional barqarorlik	20,8	41,7	37,5
6	Stressga chidamlilik	19,2	39,1	41,7
7	Rezilyentlik	28,3	45,0	26,7
8	Kelajakka ishonch	24,2	43,3	32,5

Olingan natijalar ota-onasiz tarbiyalanayotgan o'smir o'g'il bolalarda xavotir darajasining yuqoriligi (45,8 %) hamda o'z-o'zini baholashning pastligi (47,5 %) ustun ekanligini ko'rsatadi. Shuningdek, respondentlarning 41,7 foizida stressga chidamlilik past darajada ekanligi aniqlangan. Shu bilan birga, rezilyentlikning o'rtacha (45,0 %) va yuqori (28,3 %) ko'rsatkichlari ayrim o'smirlarda ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va shaxsiy psixologik resurslar mavjudligini ko'rsatadi.

So'nggi yillarda rivojlanish psixologiyasida rezilyentlik (resilience) tushunchasi alohida ilmiy ahamiyat kasb etmoqda. Rezilyentlik shaxsning murakkab hayotiy vaziyatlardan keyin ham psixologik barqarorligini saqlab qolishi va muvaffaqiyatli rivojlanishda davom etish qobiliyatidir.

A. Masten rezilyentlikni "oddiy mo'jiza" deb ta'riflab, uni faqat individual xususiyat emas, balki biologik, psixologik va ijtimoiy omillarning o'zaro integratsiyasi sifatida baholaydi.

Ota-onasiz tarbiyalanayotgan o'smirlarda rezilyentlikni shakllantiruvchi asosiy omillar quyidagilar hisoblanadi:

1. Individual omillar:

- yuqori intellektual salohiyat;
- o'z-o'zini boshqarish qobiliyati;
- optimistik dunyoqarash;
- ijobiy motivatsiya.

2. Oilaviy yoki o'rnini bosuvchi omillar:

- mehribon vasiy;
- ishonchli tarbiyachi;
- barqaror emotsional munosabat.

3. Ijtimoiy omillar:

- maktab jamoasi;
- psixologik xizmat;
- sport va ijodiy to'garaklar;



- murabbiylik dasturlari;
- tengdoshlarning ijobiy qo'llab-quvvatlashi.

Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, rezilyentlikni rivojlantirishga qaratilgan psixologik treninglar ota-onasiz tarbiyalanayotgan o'smirlarda depressiya, xavotir va deviant xulq-atvor ko'rsatkichlarini sezilarli darajada kamaytiradi (2-jadval).

2-jadval: Ota-onasiz tarbiyalanayotgan o'smir o'g'il bolalarning asosiy ijtimoiy-psixologik xususiyatlari

Psixologik ko'rsatkich	Kuzatiladigan xususiyat	Ehtimoliy oqibat
Emotsional holat	Xavotir, ichki taranglik	Depressiv reaksiyalar
O'zini baholash	Beqaror yoki past	O'ziga ishonchsizlik
Ijtimoiy moslashuv	Muloqot qiyinchiliklari	Izolyatsiya yoki konflikt
Gender identifikatsiyasi	Ota modeli yetishmasligi	Rol noaniqligi
Stressga chidamlilik	Pastroq moslashuv	Emotsional zo'riqish
Motivatsiya	O'zgaruvchan	Ta'limdagi qiyinchiliklar
Rezilyentlik	Qo'llab-quvvatlashga bog'liq	Ijoiy rivojlanish imkoniyati

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan nazariy tahlillar shuni ko'rsatadiki, ota-onasiz tarbiyalanayotgan o'smir o'g'il bolalarning ijtimoiy-psixologik rivojlanishi ko'p omilli jarayon bo'lib, uni faqat ota-onaning yo'qligi bilan izohlash yetarli emas. Shaxs rivojlanishiga emotsional bog'lanish sifati, tarbiyaviy muhit, ta'lim muassasasining psixologik iqlimi, tengdoshlar guruhi, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimi va individual psixologik resurslar kompleks ta'sir ko'rsatadi.

Ota-onaning yo'qligi emotsional deprivatsiya, identiklik inqirozi, ijtimoiy moslashuvdagi qiyinchiliklar va stressga sezgirlikni kuchaytiruvchi xavf omili bo'lsa-da, bu omil shaxs taqdirini mutlaq belgilab bermaydi. Zamonaviy rezilyentlik nazariyalari shuni isbotlaydiki, malakali psixologik yordam, sog'lom tarbiyaviy muhit, ishonchli kattalar bilan barqaror munosabat va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash mavjud bo'lsa, ota-onasiz tarbiyalanayotgan o'smirlarning psixologik rivojlanishida ijobiy natijalarga erishish mumkin.

Shu bois bunday o'smirlar bilan ishlashda faqat muammolarni aniqlash emas, balki ularning shaxsiy resurslarini rivojlantirish, rezilyentlikni mustahkamlash, ijtimoiy kompetensiyalarni shakllantirish va ijobiy hayotiy istiqbollarni qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan kompleks psixologik-pedagogik dasturlarni ishlab chiqish dolzarb vazifa hisoblanadi. Mazkur yondashuv ularning jamiyatga muvaffaqiyatli integratsiyalashuvi, sog'lom shaxs sifatida kamol topishi va ijtimoiy farovonligini ta'minlashning muhim sharti hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Bandura A. Social Learning Theory. - Englewood Cliffs, NJ: Prentice Hall, 1977. - 247 p.
2. Baumrind D. Current patterns of parental authority // Developmental Psychology Monographs. - 1971. - Vol. 4(1). - P. 1-103.
3. Bowlby J. Attachment and Loss. Vol. 1: Attachment. - New York: Basic Books, 1969. - 401 p.
4. Erikson E.H. Identity: Youth and Crisis. - New York: W.W. Norton & Company, 1968. - 336 p.
5. Garmezy N. Resilience in children's adaptation to negative life events and stressed environments // Pediatric Annals. - 1991. - Vol. 20(9). - P. 459-466.
6. Lazarus R.S., Folkman S. Stress, Appraisal, and Coping. - New York: Springer Publishing Company, 1984. - 445 p.
7. Vygotsky L.S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. - Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978. - 159 p.
8. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. - Toshkent, 2023.
9. O'zbekiston Respublikasining "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni. - Toshkent, 2008.
10. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. - Toshkent, 2020.
11. O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi. - Toshkent: Adolat, 2024.
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlarni qo'llab-quvvatlash va ularning huquqlarini himoya qilishga oid farmon va qarorlari. - Toshkent, 2021-2025.
13. Элов З.С. Девиант хулқ-атворли ўсмирлар орасида суицидал ахлоқ тушунчаси ва илмий таҳлиллар. 2023, Journal of Pedagogical and Psychological Studies 1 (1), 150-157
14. Z.Elov. O'smirlik davrida shaxs xulq-atvorida kuzatiladigan reaksiyalarning psixologik ta'siri. 2022. Science and Education 3 (3), 442-447
15. Элов З. Ўсмир шахсида деликвент ахлоқ-девиант хулқ-атвор шакли сифатида. 2023. Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar xalqaro ilmiy metodik jurnal.–Buxoro. 367-368
16. Elov Z. Voyaga yetmaganlarga sudga oid psixologik ekspertizasini o'tkazilishining psixologik xususiyatlari.// 2024 Педагогик ва психологик тадқиқотлар 1 (№1), 9-14

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №7(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.